

# Yangi Kia Carens



Movement that inspires





## Yangi Kia Carens'ni kutib oling

Yangi Kia Carens dizayni tabiatdan ilhomlangan elementlar bilan hay-tek uslubida yaratilgan. Qat'iyatli, dadil qiyofa zahirida buyuk kelajakka munosib noziklik va ulug'vorlik yashiringan. Vaqt sinovidan o'tgan va ko'pchilikka manzur bo'lgan ushbu model mukammallikning yangi bosqichiga yetdi va g'aroyib taassurotlar taqdim etmoqda.





# Dadil va o'ziga xos uslubga ega qiyofa

Kia Carens'ning tanilgan va unutilmas o'ziga xos uslubi hissiyot va ehtiromni uyg'otadi. Avtomobil dadil va qat'iyatli ko'rinishga ega bo'lib eng zamonaviy tasavvurda mukammallikni o'zida mujassam etgan.







Kia brendining "Yo'lbars tabassumi" uslubidagi radiator panjarasi dizayni raqamli davrning zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan



"Yulduzli xarita" uslubidagi LED fara va kunduzgi yurish chiroqlari



"Yulduzli xarita" uslubidagi orqa LED chiroqlari



Tom qismidagi shaffof lyuk



16 dyumli ikki rangga ega yengil qotishmali diskalar



Orqa bamporning xromlangan qoplamasi





## Ilhomlantiruvchi interyer



Sakkiz dona dinamikalariga ega BOSE Premium Sound ilg'or audiotizimi



64 xil turdagi ranglarga ega atmosferali yoritgich





Kia Carens o'rindiqlari bejirim va zamonaviy bo'lib, isitish funksiyasi sovuq mavsumda ham qulaylikni ta'minlaydi. Hay-tek uslubida ishlangan old panel haydovchi va yo'lovchini qamrab olgandek, o'zida shinamlik muhitini yaratadi. Har bir safaringizni mukammal qilish uchun avtomobilning interyeri eng mayda qismlarigacha puxta ishlab chiqilgan.



Isitiladigan va ventilyatsiyali old o'rindiqlar



4.2 dyumli rangli LCD displeyga ega raqamli asboblari paneli



## Sizning qulayligingiz uchun yaratilgan

Salondagi kenglik - bu turkumdagi avtomobillar orasida eng yaxshisi hisoblanadi. Uning ichida chinakamiga xotirjam bo'lib, o'zingiz bilan holi qolishingiz mumkin. Barcha oila a'zolari bilan qulay sayohatga chiqish uchun yetarli o'rinlar mavjud - olti kishilik joylashuv buni osongina amalga oshirish imkonini beradi. Mato yoki ekocharm qoplamali o'rindiqlar uch qator da joylashtiriladi. Uydan yiroqda bo'lsangiz ham, o'zingizni uydagi shinamlikda his qilishingiz mumkin.



## Turli xil bagaj yuklari uchun salonnı o'zgartirish imkoniyatlari



Hamma joylashishi qulaymi yoki ko'proq bagaj yukı olishi kerak bo'ladimi? Kia Carens sizga oilaviy sayohatingiz uchun qancha joy kerak bo'lsa, shuncha joy taqdim etadi. Yo'lga otlanar ekansiz, uyda



Yig'iladigan uchinchi qator o'rindiq lari



Yig'iladigan ikkinchi va uchinchi qator o'rindiq lari

# Har bir qismida o'ylangan qulaylik

Qulaylik to'g'risida gap ketganda, eng kichik qismlar ham ahamiyatga ega. Kia Carens salonida ko'plab kichik funksiyalar mavjud bo'lib, ular birgalikda qisqa shahar safarlarida ham, uzoq sayohatlarda ham katta qulaylik hissini yaratadi. Transformatsiyalanadigan salon, buyumlarni saqlash uchun turli xil bo'limlar, qurilmalarni qayta quvvatlash uchun alohida USB-C portlari va boshqalar — bularning barchasi yangi Kia Carens'da mavjud.



Shiftga ikkinchi va uchinchi qatorlar uchun konditsionerlash tizimining alohida havo quvurlari deflektorlari o'rnatilgan



Ikkinchi qatoridagi o'rindiqlarni bitta tugmani bosish yordamida yig'ish mumkin



Old paneldagi ko'chma stakan qo'ygichlar



O'rindiq ostidagi tortma



Umumiy saqlash hajmi 2,5 litr bo'lgan old eshik cho'ntak qismidagi butilka tutqichlari



O'rindiq suyanchig'iga o'rnatilgan yig'ma stol, stakan qo'ygich va gadjetlar uchun ushlagich





Apple CarPlay va Android Auto tizimi ishlaydigan va old panelga o'rnatilgan multimedia



Smartfon uchun simsiz quvvatlash paneli



USB va USB-C portlari, 12V rozetkasi va bir nechta muhim tizimlarni boshqarish tugmalari simsiz quvvatlash paneli yonidagi markaziy konsolda qulay tarzda guruhlangan.



Uchinchi qatordagi yo'lovchilar oldinda o'tirganlardan telefonlarini quvvatlantirishni so'rashlari zarur bo'lmaydi: ularning ixtiyorida alohida USB-C porti mavjud



Krujkalar va ichimliklar solingan bankalar uchun sovutiladigan bo'limlar



Markaziy tirsak qo'ygichning orqa qismida nafaqat USB va USB-C portlari, balki ichimliklar bankasi uchun sovutiladigan bo'lim ham qulay joylashgan

# Zamonaviy benzinli dvigatellar va transmissiyalarning maqbul tanlovi

Yangi Kia Carens o'zining kuchli xususiyatlari bilan sizni xushnud etadi. U jo'shqinli va hayajonli boshqaruvdan haqiqiy zavq bag'ishlashga qodir.



## Smartstream 1.5T turkumidagi kuchli benzinli dvigatel

**Quvvati** 160 ot kuchi / 5500 ayl/daq  
**Burovchi moment** 253 N·m / 1500-3500 ayl/daq

## Ilg'or texnologiyalar. Smartstream 1,5 litr turkumidagi benzinli dvigatel

**Quvvati** 115 ot kuchi / 6300 ayl/daq  
**Burovchi moment** 144N·m / 4500 ayl/daq





## Xavfsizlikning eng yuqori darajasi

Kia Carens uchun ushbu toifadagi eng yaxshi avtomobillardan biri standartlarga qo'shimcha ravishda xavfsizlik opsiyalari to'plamini birlashtirgan Robust 10 paketi taklif etiladi. Ushbu paket bilan Carens o'z segmentidagi eng xavfsiz avtomobil maqomiga haqli ravishda da'vogarlik qilmoqda. Yangi modelni ishlab chiqish jarayoni endigina yo'lga qo'yilganidan boshlab sizning xavfsizligingiz haqida qayg'uramiz.

6 dona xavfsizlik yostiqchalari, ESC (elektron barqarorlashtirish tizimi), VSM (shassini dinamik boshqarish tizimi), BAS (tormozlash yordamchisi), NAS (ko'tarilishda start yordamchisi), DBC (pastga tushishda harakatlanish yordamchisi), ABS, barcha g'ildiraklardagi diskli tormozlar, TPMS (shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi), avtoturargohga joylashtirish uchun orqa tomon datchiklari. Shuningdek, barcha versiya va komplektatsiyalar uchun boshqa xavfsizlik opsiyalari ham mavjud: ISOFIX bolalar kreslosini mahkamlash, favqulodda tormozlash rejimiga ega qo'shimcha yuqori stop-signal, oldingi tortqichlar va yuk cheklovchilari bilan old xavfsizlik kamarlari, harakat boshlanganda eshik qulflarini avtomatik qulflash tizimi, avariya paytida eshiklarni avtomatik quldan chiqarish tizimi.



Yuqori mustahkam po'lat sortlaridan tayyorlangan kuzovning mustahkamlik tuzilmasi



Barcha g'ildiraklardagi diskli tormozlar



Shinalarida bosimni masofadan nazorat qilish tizimi TPMS



Avtoturargohga joylashtirish uchun old va orqa tomon datchiklari

# Aynan o'zingizga munosibini tanlang

## Salonning bezakli qoplama turlari



O'rindiqlar qoplamasi: sun'iy charm



O'rindiqlar qoplamasi: mato / sun'iy charm

## G'ildirak diskalari



16 dyumli ikki rangli "kristall" kabi sayqallangan yengil qotishmali diskalar



16 dyumli to'liq o'lchamli qalpoqli po'lat diskalar

## Gabarit o'lchamlari, mm





## Texnik xususiyatlari

Dvigatel	Smartstream 1.5T T-GDi	Smartstream 1.5MPI
Yonilg'i turibenzinbenzin	benzin	benzin
Quvvat tizimi	GDi	MPI
Ishchi hajm (sm3)	1482	1497
Maksimal, quvvat (ot kuchi / ayl/daq)	160/5500	115/6300
Maks, burovchi moment (N-m / ayl/min)	253 / 1500–3500	144/4500
<b>Yuritma/transmissiya</b>		
Transmissiya	7DCT	CVT
Yuritma	old tomon	
<b>Podveska/tormoz</b>		
Old podveska	Burama prujinali MacPherson ustunlari	
Orqa podveska	Burama prujinali kesik STVA torsion balkasi	
Tormoz	Diskli (old/orqa)	
<b>Shinalar</b>		
Shinalar o'lchami	205/65 R16 (16")	
<b>Boshqa xususiyatlari</b>		
Yonilg'i bakining sig'imi, l	45	
Joylar soni	6	

## Barcha versiya va komplektatsiyalar uchun mavjud bo'lgan opsional xavfsizlik tizimlari

6 dona xavfsizlik yostiqchalari, ESC (elektron barqarorlashtirish tizimi), VSM (shassini dinamik boshqarish tizimi), BAS (tormozlash yordamchisi), NAS (ko'tarilishda start yordamchisi), DBC (pastga tushishda harakatlanish yordamchisi), ABS, barcha g'ildiraklardagi diskli tormozlar, TPMS (shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi), avtoturargohga joylashtirish uchun orqa tomon datchiklari

## Kuzov rang variantlari



Imperial Blue



Sparkling Silver



Intense Red



Glacier White Pearl



Clear White



Gravity Grey



Aurora Black Pearl

## Ilhomlaning. Yangi Kia Carens



Batafsil ma'lumotlarni [kia.uz](http://kia.uz) rasmiy saytidan olishingiz mumkin

Barcha ma'lumotlar va illyustratsiyalar chop etish vaqtida mavjud ma'lumotlarga asoslangan. Kompaniya oldindan ogohlantirishsiz o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Uskunalarining to'liq ro'yxati va qo'shimcha ma'lumotlarga Kia dilerlari bilan bog'lanish orqali ega bo'lishingiz mumkin.

\* 5 yillik yoki 150 000 km masofalik kafolat [kia.uz](http://kia.uz) sayti va avtomobilning xizmat ko'rsatish kitobida ko'rsatilgan shartlar asosida amal qiladi.

\*\* Ba'zi elementlarni bezatish uchun tabiiy va sun'iy teri kombinatsiyasidan foydalanish mumkin.

Avtomobilning tashqi ko'rinishi reklamada ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.

  
Movement that inspires

